



**2025-2026-o'quv yilida 10-sinf o'quvchilarining informatika va axborot
texnologiyalari fanidan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test varianti**

II chorak 2-ChSB

Jami: [40 ball]

1.(Q) Korxonada ikkita filial bir-biridan 300 km uzoqlikda. Ularning o'zaro ma'lumot almashishi uchun qanday tarmoq turi zarur?

- A) LAN
- B) PAN
- C) WAN
- D) VLAN

2.(Q) Bir korxonada barcha ma'lumotlar serverda saqlanadi. Agar server ishdan chiqsa, butun tarmoq ishlamay qoladi. Bu qaysi kamchilikka misol?

- A) Resurslarni bo'lishish muammosi
- B) Markazlashgan boshqaruvning zaif tomoni
- C) Tarmoqning kengaytirilmasligi
- D) Internetga bog'liqlik

3.(Q) Bir korxonada internet ishlayotgani holda umumiy papkalar ochilmay qoldi. Qanday xulosa chiqarish mumkin?

- A) LAN ishlamayapti, WAN ishlayapti
- B) WAN uzilgan, LAN ishlayapti
- C) Har ikkalasi ishlab turibdi
- D) Tarmoq faoliyati to'liq to'xtagan

4.(Q) LAN va WAN tarmoqlarida **masofa qamrovi** nuqtai nazaridan farq qaysi?

- A) LAN keng hududni qamrab oladi
- B) WAN kichik hududni qamrab oladi
- C) LAN kichik hudud, WAN katta hudud
- D) Ikkalasi bir xil hudud qamraydi

5.(B) Ushbu ta'riflardan qaysi biri faqat peer-to-peer tarmog'iga xos?

- A) markazlashgan ma'lumotlar xotirasiga ega bo'lib, barcha ulangan kompyuterlar undan foydalana oladi
- B) ko'p kompyuterdan tashkil topgan yirik tarmoqlarga mos
- C) markazlashgan ma'lumotlar zahirasiga ega emas
- D) alohida ajratilgan kompyuter tarmoqni boshqaradi

6.(Q) VPN va shifrlashni solishtiring. Qaysi variant to'g'ri?



- A) VPN ma'lumotni shifrlamaydi, shunchaki tezlikni oshiradi
- B) Shifrlash faqat paketlarni o'zgartiradi, VPN esa tunnelling bilan birga xavfsizlik beradi
- C) VPN va shifrlash bir xil jarayon
- D) Shifrlash faqat LAN uchun ishlaydi

7.(Q) Moslikni toping:

1) internet xizmat provayderi (ISP)	a) ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va tarmoq orqali boshqa qurilmalarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan kompyuter
2) TCP/IP	b) foydalanuvchilarga va tashkilotlarga internetga ulanish xizmatini taqdim etuvchi kompaniya
3) Server	c) internet va boshqa tarmoqlarda ma'lumotlarni uzatish uchun ishlatiladigan asosiy protokol to'plami.

- A) 1-a; 2-c; 3-b;
- B) 1-c; 2-b, 3-a;
- C) 1-b; 2-a; 3-c
- D) 1-b; 2-c; 3-a;

8.(B) Nuqtalar o'rnini to'ldiring. *Mobil tarmoqlar ... deb ataluvchi uncha katta bo'lmagan hududlarga bo'linadi.*

- A) uyalar
- B) provayderlar
- C) mobil texnologiyalar
- D) uzatgichlar

9.(Q) Quyidagi variantlardan qaysi biri internet muloqotining xavfsizligini oshiradi?

- A) Parol va shifrlash ishlatish
- B) Internet tezligini oshirish
- C) Video konferensiya qilish
- D) Forumda post yozish

10. (M) Avtomobil ustaxonasi uchun ekspert tizimi ishlab chiqilmoqda. Mutaxassislar o'z tajribasiga asoslangan "IF ... THEN" shaklidagi qoida va faktlarni tizimga kiritishmoqda. Ushbu jarayon qanday elementni shakllantirishga qaratilgan?

- A) Foydalanuvchi interfeysi
- B) Bilimlar bazasi
- C) Tarmoq moduli
- D) Sensorlar qatlamini sozlash

11.(M) Korxonada barcha kunlik tranzaksiyalar kechqurun soat 22:00 da avtomatik yig'ilib, bir martalik qayta ishlash jarayoniga jo'natiladi. Qaysi qayta ishlash turi qo'llanilmoqda?



- A) Onlayn qayta ishlash
- B) Paketli qayta ishlash
- C) Real vaqt qayta ishlash
- D) Interaktiv qayta ishlash

12.(B) Ekspert tizimida "bilimlar bazasi"ning asosiy vazifasi qaysi?

- A) Foydalanuvchidan kiritilgan ma'lumotlarni saqlash
- B) Mutaxassis bilimlarini formal ko'rinishga keltirib, qoidalar va faktlar asosida qaror chiqarish imkonini yaratish
- C) Tizimning grafik interfeysini boshqarish
- D) Tizimga kirishni autentifikatsiya qilish

13.(Q) Havo harakatini boshqarish ekspert tizimi radar orqali olingan parvoz ma'lumotlarini bir necha millisekundda tahlil qilib, ikkita samolyotning to'qnashuv xavfini aniqladi va dispetcherga ogohlantirish berdi. Bu tizim qaysi qayta ishlash rejimiga tayanadi?

- A) Paketli
- B) Onlayn
- C) Offline
- D) Real vaqt rejimi

14.(Q) Quyidagi holatlardan qaysi biri ekspert tizimiga xos emas?

- A) Donishmandlikni modellashtirish
- B) Qoidalar asosida xulosa chiqarish
- C) Inson tajribasidan mustaqil ravishda tasodifiy qaror chiqarish
- D) Muammolarni diagnostika qilish

15.(Q) Quyidagi ta'rif qaysi qayta ishlash turiga tegishli?

"Jarayonlar kechikmasdan bajarilishi zarur, natija kechiksa tizimda uzilish yoki xavf yuzaga kelishi mumkin."

- A) Onlayn qayta ishlash
- B) Real vaqt rejimida qayta ishlash
- C) Paketli qayta ishlash
- D) Aralash qayta ishlash



Javoblar:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
C	B	A	C	C	B	D	A	A	B	B	B	D	C	B

Baholash mezonlari:

(B) – Bilish, har bir to'g'ri javob uchun – 2 balldan, jami 6 ball;

(Q) – Qo'llash, har bir to'g'ri javob uchun – 2,4 balldan, jami 24 ball;

(M) – Mulohaza, har bir to'g'ri javob uchun – 5 balldan, jami 10 ball;

Jami: [40 ball]